



ABDULLA ORIPOV POETIKASINING O'ZIGA XOSLIGI

**Axmedova Muxlisa, Quranboyeva Nozima,
Satmuratova Xurmo**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI Turkiy tillar fakulteti
talabalari*

Annotatsiya. She'r – ko'ngil mulki. Shoir o'zining nafis qalami bilan yurakdan bitilmish qog'ozi yonida yolg'iz qolar ekan, albatta, ilhom qanotida parvoz qiladi. Bilaks, bu holat sodir bo'lmas ekan, uning asari o'rtamiyona asardan nariga qanchalik urinsa ham, o'ta olmaydi. Modomiki shunday ekan, ijodkor she'r yozayotganda uni ich-ichidan his qilib, har bir so'zni zanjirdek tizib yozmog'i, unga bor-buduni bermog'i lozim. Zero, atoqli adib Asqad Muxtor: "Ijod dardi yo'l azobidir" – deya bejiz aytmagan. Yo'l azobi qanchalik qiyin, mashaqqatli bo'lsa, ijod dardi ham xuddi shunchalik zahmatlidir.

Kalit so'z: she'r, she'riyat, motiv, ijod, "Tilla baliqcha", tasvir, poetik did, xalqchilik, ilhom, "Qo'riqxon" she'ri, didaktik qarash.

Abdulla Oripovda mana shu xususiyat, mana shu jihat, mana shu teranlik oliy nuqtaga yetgan. Umuman olib qaraganda shoir she'r yozar ekan, mana shu lirikasi orqali nima demoqchi bo'lgani, kimni maqtab, kimdan alamini olmoqchiligi, insoniyatga daxldor bo'lgan didaktik g'oyalarni kitobxonning ongi-shuuriga so'zning nozik jihatlaridan foydalanib yetkazishga tirishadi. Yozuvchi poetikasini o'qir ekansiz, biror bir so'zni noo'rin qo'llanilmaganiga guvoh bo'lasiz. Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, uning she'rlarida, ayniqsa, falsafiy g'oyalar bilan yo'g'rilgan she'rlarida fikr yalang'och tasvirlanmaydi. Ayniqsa, fikrimizning yorqin dalili "Tilla baliqcha" she'ri orqali yanada ravshanlashishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin:

Tuxumdan chiqdi-yu, keltirib uni
Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.
Tashlandiq ushoq yeb o'tadi kuni
Xor-xas xazonlar ustin yopdilar.
Dunyoda ko'rgani shu tor hovuzcha
Va gavjum tollarning achchiq xazoni.
Menga alam qilar tilla baliqcha
Bir ko'lmak hovuz deb bilar dunyoni.

Ushbu to'rtlikni talqin qilishdan avval she'r yozilgan davrga diqqat qilish maqsadga muvofiqdir. Tasavvur qiling: o'tgan asrning oltmishinchi yillari, ayni shu davrda butun SSSRda, shu jumladan, bizning yurtimizda ham "sovet xalqlarining manfaati bitta" degan soxta shior bong urgan, barcha rahbarlar "biz



eng qudratli davlatda yashayapmiz, biz eng baxtiyor avlodmiz” – deya jarangdor soʻzlar bilan butun xalqni, eng avalo, oʻzlarini aldash avj nuqtaga yetgan davr edi. Holbuki, mamlakat iqtisodiyoti yildan-yilga pasayib, kommunizm qurish (kommunizm – sotsializmning yuqori bosqichi, u sotsializmning yuksak tarixiy taraqqiyoti natijasida paydo boʻladi deb uqtirilgan) har bir rahbar davrida ortga surilayotgani kundek ravshan edi. Abdulla Oripov mana shunday qaltis davrda tilning koʻchma maʼnolaridan mohirona foydalanib, ushbu sheʼrni shoirona mahorat ila qogʻozga bitgan edi. Poetik didi va saviyasi yuqori, lirikani tahlil qilish koʻnikma-malakasiga ega boʻlgan kitobxon “loyqa hovuz” asar yozilgan muhitdagi jamiyat, tuxumdan chiqqan “tilla baliqcha” oʻsha davrdagi odamlar, “tashlandiq ushoq” esa ana shu insonlarga berilgan soxta mafkura ekanligini tezda fahmlagan boʻlsa kerak. Sheʼr soʻngida shoir “Menga alam qilar tilla baliqcha, Bir koʻlmak deb bilar butun dunyoni” deyishi orqali mana shu turmushdan boshqa yaxshisi yoʻq deb bong urayotganlarning ahvoliga achinishi yaqqol sezilib turibdi.

Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, adib bu yerda lingvistikaning nozik qirralaridan unumli foydalanib, fikrni metoforik usullar yordamida kitobxonga taʼsirchan tarzda yetkazishning samarali yoʻlida foydalangan. Bundan tashqari fikrni ochiq tarzda bayon etish, birinchidan, ijodkor yashagan muhitda shoirni bir qadar xavf ostiga qoʻysa, ikkinchidan, sheʼrning badiiy qimmatini yoʻqqa chiqarishi, natijada sheʼr bugungi kundagi ahamiyatini yoʻqtishi hech gap emasdi. Shularni hisobga olgan holda shoir kitobxonga aytmoqchi boʻlgan fikrlarni yuqorida zikr etganimizdek, haminqadar koʻchma maʼnolar orqali bayon etgan, nazdimizda. Shoir sheʼrlarini oʻqir ekansiz, bevosita yurak jiz etmasdan qolmaydi. Lirikasi xalqchil, sodda, ravon, Qofiya tartibining ham, koʻpincha, a-b-a-b tarzida, barmoq vaznining asosan yetti, toʻqqiz, oʻn bir boʻgʻinlardan foydalanishi asarni oʻqishni qilishda benihoya katta vazifani bajargan.

Adib asarlarining aksariyati qoʻshiq boʻlib kuylanishining ham asosiy sababi mana shunda omilda boʻlsa ne ajab. Yuqorida taʼkidlab oʻtilganidek, adibning aksar sheʼrlarida oʻzbekona dard bor. Abdulla Oripov sheʼrni hech qachon shunchaki yozmaydi, goʻyoki Halima Xudoyberdiyevaning: “Shunchaki yozmoqlik – shoirga oʻlim” tamoiliga qattiq amal qiladi. Asarlarini sharqqa xos donolik, vazminlik, zukkolik nilan sugʻoradi. Bu jarayonda unga sharq mumtoz lirikasining katta bilimdoni ekanligi nihoyat darajada qoʻl keladi, asqatadi. Shu sababli ham ijodkor bejizga: “Sharqqa sheʼriyatni oʻrgatib boʻlmaydi”, – deya aytib oʻtgan edi.



Adabiyotshunoslik ilmidan ma'lumki, Sharq mumtoz poetikasi ko'proq falsafiy, axloqiy, didaktik qarashlarga suyanadi, aksar asarlar mana shu g'oyaviy birlik asosida yozilganligi hech kimga sir emas. Mumtoz asarlarimizning nodir durdonalari qatoridan o'rin olgan "Qutadg'u bilig", "Hibbat ul-haqoyiq" kabi asarlarni sanab o'tishning o'ziyoq fikrimizning naqadar o'rinli ekanligini ko'rsatib turibdi. Abdulla Oripov Sharq mumtoz poetikasining o'tkir bilimdoni ekanligini hisobga olsak, yuqorida sanab o'tilgan asarlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini o'z she'riga singdirib yuborishi, singdirib yuborganda ham tatimli, yoqimli tarzda singdirib yuborishi, birinchidan, yuksak shoirlik iste'dodidan, ikkinchidan esa, Sharq she'riyatining ulkan bilimdoni ekanligidan dalolatdir. Mumtoz poetikamiz o'ziga xos an'analarga boy. Bu boy an'analardan Abdulla Oripov tomonidan o'rganildi, sayqallashtirildi, takomillashtirildi, rivoylantirildi. Faqat unga yangicha yondashish, talqin qilish, kezi kelganda o'rni bilan tayanish muhimdir. Ammo unutmazlik kerakki, me'yorida ortiq tayanish, ko'pincha, taqlidga olib kelishi mumkin. Mana shu insoniylik, ezgulik, yaxshilik, odamiylik singari tuyg'ular Abdulla Oripov she'riyatining asosiy mezonlaridan biri edi.

Adibning "Qo'riqxonada" she'ri, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Ma'lumki, qo'riqxonada tabiatda kamyob bo'lgan turfa xil gullar, o'simliklar, hayvonlar va shu tipdagi narsalar saqlanadi. Sezganingizdek, she'rning daslabki bandlarida mana shu jihatlarda qalamga olingan. Keyingi misralarda mana shu jihatlarda alqovlangan:

Munis mavjudotga mehr-u shafqat bu
Bu inson qalbida balqqan hamiyat.

She'r davomida esa "Sof qalbni uchrasangiz, atrofini darhol o'rab oling", "Insofni yuzsizlik xarob etmasdan o'rab oling", "Ezgulik dunyoda tojdor turna kabi kamyob bo'lmasidan avval o'rab olish darkor", "Otashga duch kelgan polapon misoli kuymasdan hayoni asrang" singari ma'nolarni yuklashi she'rning qiymatini anchayin oshirgan. Bizga ma'lumki, lirika badiiy va hayotiy haqiqat uyg'unlashganda uning qimmatini ortadi, kitobxonni ta'sirlantiradi, uni o'yga toldiradi. Endi she'rdagi jummalarga e'tibor qaratsak, biz hayotiy va badiiy haqiqat naqadar uyg'unlashib, she'r jozibasiga joziba qo'shgan. E'tibor qilsak, "tojdor turna kabi kamyob bo'lmasidan avval ezgulikni asrash kerak" mazmunidagi fikrning ishlatilishi o'quvchini beixtiyor o'yga toldiradi, mushohadaga chorlaydi, uni bevosita badiiyat ummoniga tortib ketadi. Endi tasavvur qilaylik: "agar shoir shunchaki ezgulikni asrang" deb yozgani qanday ta'sir qiladi-yu, yuqoridagi tarzda



so'zlarni marjondek tizib xitob qilsa, qay holda ta'sir qiladi. Albatta, shoirona, falsafiylik bilan sug'orilgan, badiiyatga hayotiy haqiqat uyg'unlashgan holda tasvirlash birinchi aytilgandagi variantga qaraganda ancha sezilarli darajada ta'sir qiladi. O'quvchi bevosita tojdor turnaning kamayganligiga e'tibor qaratadi va ezgulikni shu holatga tushib qolishdan saqlashga tirishadi. She'rning badiiy qimmat ham aslida mana shunda. Agar shu holat sodir bo'lsa, ijodkor albatta o'z maqsadiga erishgan bo'ladi, yanada ilhom olib, mukammal asarlar yaratadi. O'zbek mumtoz adabiyoti Alisher Navoiy davrida cho'qqiga yetdi. Modomiki shunday ekan, Navoiyning ijodi Abdulla Oripov she'riyatiga juda kata ta'sir ko'rsatganligi tabiiy. Shu sababli ham Navoiyga bag'ishlab bir qancha she'rlar yaratdi, uning asarlariga muxammaslar bog'ladi, Hattoki shoirlar ijodidagi umumlashma mavzu hisoblanadigan ona timsoli haqida she'r yozayotganida ham Abdulla Oripov Navoiy timsolidan foydalanishni o'ziga xos tarzda amalga oshirdi. Shu sababli ham "Navoiyning onasi-da, Alisherning onasi", degan misralari dunyoga keldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Abdulla Oripov zamoviy she'riyatga murojaat qilsa ham, mumtoz poetikaga murojaat qilsa ham o'z ishiga shoirona yondashdi. Shunday asarlar bitdiki, uning nomini bugungi kunda ham dunyoga tarannum etmoqda. Abdulla Oripov vafot etgan bo'lsa ham, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan shoir nomini abadiylashtirish uchun bir qancha madaniyat muassasalariga, istirohat bog'lariga, maktab va litseylarga adib nomi berildi. Ulug' bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida: "Ismning yodga olinishini hakimlar ikkinchi umr deb ataganlar", – jumlasini bejiz qo'llanmagan. Demak, Abdulla Oripovning ikkinchi umri ijodkorlar, yozuvchilar, kitobxonlar, umuman, ilm ahlining qalbida mangu yashamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atakhanovna, Y. G. (2020). ON THE CREATION OF EDUCATIONAL CONTENT AND THE PECULIARITY OF ITS USE FOR MISCELLANEOUS LEARNING IN THE LESSONS OF THE UZBEK LANGUAGE. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 9(2), 58-65.
2. Kabulova, Z. A. (2022). Development of spiritual and formal-methodological studies in modern Uzbek and Karakalpak poetry. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(5), 56-59.



3. Abdurakhimova, D. K. (2014). PREREQUISITES FOR THE TRANSITION OF TRADITIONAL BANKS TO DIGITAL BANKING. *The Way of Science*, 23.
4. Iriskulov, A., Aslanov, A., & Subhonova, A. (2021). WHY DO WE NEED A GLOBAL LANGUAGE?. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*.
5. Subxanovich, A. A. (2023). Communication Features of a Qualified Doctor with Different Patients.
6. Kdirbaeva, G., & Usenova, V. (2021). Challenges In Teaching And Learning Efl At Karakalpak Schools (On The Example Of Nukus Public Schools). *Ilkogretim Online-Elementary Education Online*, 20(3), 1606-1616.
7. Allambergenovich, K. G. (2021). Use of the kazakh language in karakalpakstan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 279-284.
8. Gulmurza, K. (2021). Synonymy in Uzbek and Karakalpak Phrases with the Concept of " Speech". *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 2(6), 98-103.
9. Khodjaniyazov, E., Xudayarova, M. T., Yuldasheva, S. S., Buranova, S. M., & Kabulova, D. S. (2020). HISTORICAL BACKGROUND OF FOOD NAMES IN UZBEK DIALECT IN KARAKALPAKSTAN REGION. *Journal of Critical Reviews*, 7(18), 3564-3570.